


### III. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 20 826,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 39,7 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,5 % ni), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 19,0 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,1 % ni), ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining 7,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 81,4 % ni) hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 4,7 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 17,0 % ni) o'sishi kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 98,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

#### **Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 16 951,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 81,4 % ni tashkil etdi.

#### **2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Mahsulot nomi	2023- yil yanvar- dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi, (+:-)
Paxta tolasi, ming tonna	28,2	36,0	-7,8
Chigit - ming tonna	47,9	59,2	-11,3
Paxta linti - ming tonna	1,9	3,1	-1,2
Omuxta yem, ming tonna	16,6	43,7	-27,1
Un, ming tonna	44,7	110,8	-66,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	10,2	11,3	-1,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
sanoat mahsuloti turlari  
(yirik korxonalar bo'yicha)

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Yumshoq bug'doy va spelta uni	t	44 727,3	40,3
Kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	32 956,0	66,1
Tozalangan o'simlik yog'i	t	10 215,0	90,1
Paxta tolasi	t	28 231,6	78,4
Paxta chigiti	t	47 858,9	80,9
Paxta linti	t	1 909,6	60,9
Xom ipak (pishitilmagan)	t	27,0	132,4
Paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarish	t	46 531,6	85,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 780,3	128,8
Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	t	0,5	12,5
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	ming dona	688,7	159,8
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	ming dona	77 110,1	2,3 m.
Elektr energiyasi	mln. kVt/s	6 894,1	104,8
Issiqlik energiyasi	ming gkal	71,5	97,4
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	171 740 179,0	115,0
Oqava suvlarning shlami	ming so'm	10 922 737,0	93,6
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	32 113 891,0	118,4


2023- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Faoliyat turlari	mlrd. so'm	ulushi, % da
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>16 951,8</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	2 968,2	17,5
ichimliklar ishlab chiqarish	772,4	4,5
tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	5 360,3	31,6
kiyim ishlab chiqarish	2 419,1	14,3
teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	272,9	1,6
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	57,3	0,3
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	156,3	0,9
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	10,7	0,1
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	14,8	0,1
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	652,6	3,8
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	238,2	1,4
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	484,8	2,9
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 178,5	7,0
metallurgiya sanoati	111,1	0,7
mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	879,5	5,2
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	13,1	0,1
elektr uskunalari ishlab chiqarish	662,7	3,9
boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	87,6	0,5
avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	26,1	0,2
boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	2,4	0,0
mebel ishlab chiqarish	203,9	1,2
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	363,2	2,1
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	15,9	0,1

### Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2022- yil yanvar-dekabr oylarida – 1,1 % ni), oʻrta-yuqori texnologiyalini ulushi 8,4 % ni (9,0 %), oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 15,8 % ni (12,8 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 74,3 % ni (77,1 %) tashkil etdi.

#### 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



### Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 553,4 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 17,0 % ni) tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmogʻida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bugʻ bilan taʼminlash tizimlari va havoni konditsiyalash oʻtgan-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,7 foizga koʻpayganligi kuzatildi.

#### Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

(2023- yil yanvar-dekabr)

	2023- yil	2022- yil	2022- yilga nisbatan farqi
Elektroyenergiya - mln. kVt/s	6 894,1	6 577,6	316,5
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	71,5	73,4	-1,9

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni utilizatsiya qilish**


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 222,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

**Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi**

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Kosonsoy tumani (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,1 % ga), Chust tumani (108,7 % ga), Chortoq tumani (108,3 % ga) hamda Namangan shahri (105,8 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o'sishi ta'minlandi.

	<b>Sanoat mahsulotlari (mlrd. so'm)</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>20 826,5</b>	<b>100,0</b>	<b>107,2</b>
Namangan sh.	7 761,1	37,3	105,8
Mingbuloq	758,6	3,6	101,2
Kosonsoy	1 228,3	5,9	109,1
Namangan t.	1 162,8	5,6	101,0
Norin	299,1	1,4	104,1
Pop	626,0	3,0	103,2
To'raqo'rg'on	4 273,8	20,5	104,1
Uychi	1 202,5	5,8	105,1
Uchqo'rg'on	836,6	4,0	92,8
Chortoq	493,0	2,4	108,3
Chust	1 870,3	9,0	108,7
Yangiqo'rg'on	314,4	1,5	102,5

**Tuman(shahar)lar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish  
hajmi, indeksning o'sish sur'atlari**  
(2023- yil yanvar-dekabr)  
(o'tgan- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 37,3 % ulushini), To'raqo'rg'on (20,5 %), Chust (9,0 %), Kosonsoy tumani (5,9 %), Uychi tumani (5,8 %), Namangan (5,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 17 637,1 ming so'm, Namangan shahrida 11 291,6 ming so'm, Chust tumanida 6 616,9 ming so'm, Namangan tumanida 6 105,2 ming so'm, Mingbuloq tumanida 5 598,7 ming so'm, Kosonsoy tumanida 5 451,2 ming so'mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy tumanida (2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,6 %), Chust (106,6 %), Chortoq (106,1 %), Namangan shahar (103,1 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, o'sish sur'atiga erishmagan hududlar Uchqo'rg'on tumani (90,9 %) va Namangan tumani (98,7 %) kuzatildi.

**Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab  
chiqarish hajmidagi ulushi, % da**  
(2023- yil yanvar-dekabr)



**Tuman(shahar)lar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va  
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**  
(2023- yil yanvar-dekabr)







**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 918,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 18,8 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**



**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-dekabr)**



**2023- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat  
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	Aholi jon boshiga (ming so‘mda)	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>6 869,3</b>	<b>104,8</b>
Namangan sh.	11 291,6	103,1
Mingbuloq	5 598,7	99,1
Kosonsoy	5 451,2	106,6
Namangan t.	6 105,2	98,7
Norin	1 717,5	102,2
Pop	2 681,2	101,2
To‘raqo‘rg‘on	17 637,1	101,6
Uychi	5 233,2	102,7
Uchqo‘rg‘on	4 557,2	90,9
Chortoq	2 318,7	106,1
Chust	6 616,9	106,6
Yangiqo‘rg‘on	1 340,1	100,3

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 831,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,2 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Chortoq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Yangiqo‘rg‘on (100,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (8,8 %), Uchqo‘rg‘on (29,6 %), Chust (37,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da**  
(2023- yil yanvar-dekabr)



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 91 ta loyiha bo'yicha 2 107,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**  
(2023- yil yanvar-dekabr)


Ko'rsatkichlar	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	131	91
Korxonalar soni, birlik	72	73
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	1 514,0	2 107,7
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln AQSH doll.	19,3	12,2
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	1 246	758

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 929 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1 784 tasi Namangan shahriga, 421 tasi Chust, 391 tasi Namangan, 377 tasi Kosonsoy, 349 tasi To'raqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 852 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 52,8 % Namangan shahri, To'raqo'rg'on, Chust va Namangan tumanlariga to'g'ri keldi.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda (2024- yil 1- yanvar holatiga)




### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan (107,5 %) oshishiga ta'sir ko'rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 42,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol  
tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati


	Xalq iste'mol mollari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>8 911,8</b>	<b>100,0</b>	<b>107,5</b>
Namangan sh.	4 032,5	45,4	109,8
Mingbuloq	109,5	1,2	102,4
Kosonsoy	901,0	10,1	115,3
Namangan t.	463,8	5,2	102,8
Norin	118,0	1,3	101,8
Pop	287,9	3,2	96,4
To'raqo'rg'on	1 014,8	11,4	107,2
Uychi	473,9	5,3	148,9
Uchqo'rg'on	249,3	2,8	62,4
Chortoq	408,2	4,6	116,2
Chust	645,6	7,2	117,3
Yangiqo'rg'on	207,3	2,3	76,8

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari  
(2023- yil yanvar-dekabr)





Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi  
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)


2022- yil yanvar-dekabr



2023- yil yanvar-dekabr



 Oziq-ovqat tovarlari

 Nooziq-ovqat tovarlari

### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 51,3 %ni, shuningdek Chortoq tumani 10,8 % ni, Uychi tumani esa 6,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich Uychi (141,5 %), Chortoq (130,4 %) tumanlari va Namangan shahrida (112,3 %) qayd etildi.

### Hududlar bo'yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati

	(mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>3 191,8</b>	<b>100,0</b>	<b>98,5</b>
Namangan sh.	1 614,6	50,6	112,3
Mingbuloq	60,3	1,9	84,2
Kosonsoy	78,9	2,5	73,2
Namangan t.	193,2	6,1	75,7
Norin	64,0	2,0	104,9
Pop	168,6	5,3	80,7
To'raqo'rg'on	65,2	2,0	98,9
Uychi	211,2	6,6	141,5
Uchqo'rg'on	180,3	5,6	53,5
Chortoq	345,4	10,8	130,4
Chust	99,3	3,1	90,8
Yangiqo'rg'on	110,8	3,5	64,3

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 42,2 % ni, shuningdek To‘raqo‘rg‘on tumani 16,6 % ni, Kosonsoy tumani 14,4 % ni, Chust tumani esa 9,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur‘ati eng yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq (139,1 %), Namangan (138,0 %), Pop (133,1 %), Chust (123,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida nooziq-ovqat  
tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur‘ati**

	(mlrd. so‘m)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>5 720,0</b>	<b>100,0</b>	<b>113,5</b>
Namangan sh.	2 417,9	42,2	108,1
Mingbuloq	49,2	0,9	139,1
Kosonsoy	822,1	14,4	122,1
Namangan t.	270,6	4,7	138,0
Norin	54,0	0,9	98,3
Pop	119,3	2,1	133,1
To‘raqo‘rg‘on	949,6	16,6	107,9
Uychi	262,7	4,6	85,8
Uchqo‘rg‘on	69,0	1,2	111,0
Chortoq	62,8	1,1	72,7
Chust	546,3	9,6	123,8
Yangiqo‘rg‘on	96,5	1,7	99,0